

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.12.2024.1.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ABDUKADIROVA NILUFAR ABDAXATOVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini
oshirish.....3

Абдукадирова Нилуфар Абдахатовна

Повышения эффективности инновационной деятельности в сфере
услуг.....27

Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna

Increasing the efficiency of innovative activities in the service
sector.....53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
list of published works.....57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.12.2024.1.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ABDUKADIROVA NILUFAR ABDAXATOVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov To'liq Saidahmedovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ergashev Raxmatillo Xidirovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Matyakubov Umidjon Raximovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.12.2024.1.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" 08 kuni soat 09⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~111~~-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "26" 07 daqi N^o 19- raqamli reyestr bayonnomasi).



M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH(falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi hamda zarurati. Jahonda xizmatlar ko'rsatish sohasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan umumiy ovqatlanish sohasi o'zining ijtimoiy ahamiyati bilan bir qatorda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni kamaytirishda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xalqaro ovqatlanish assotsiatsiyasi (ICA) kuzatuv natijalariga ko'ra butun dunyo bo'yicha umumiy ovqatlanish xizmatlari "2023-yilda 18% ga o'sgan va bozorining umumiy qiymati taxminan 285 milliard AQSh dollarini tashkil qildi"¹. Bugungi kunda umumiy ovqatlanish sohasida raqobatning keskin darajada kuchpayib borishi sharoitida sohada innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilishga alohida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida ijtimoiy ahamiyati va sohada raqobatning o'ta darajada kuchayib borishiga ko'ra umumiy ovqatlanish sohasini innovatsion asoslarda rivojlantirishga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada soha innovatsion faoliyatini samarali rivojlantirishning nazariy-uslubiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil qilishning samarali shakllarini asoslash, sohaga yo'naltirilgan innovatsiyalarning samaradorligini oshirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda aholi turmush sifatini oshirish, munosib ish o'rinlarini barpo etish, iste'mol mahsulotlari sifatini oshirish hamda samarali xizmat ko'rsatishni sifat jihatdan rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yurtimizning madaniy merosini ya'ni pazandachilik san'atini, tarixiy-taom an'analarini saqlab qolgan holda oz muddat ichida zamonaviy shart-sharoitlar yaratish; oshpazlik va xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirish (professional ta'lim, sertifikatlash); tun-u kun ishlaydigan ovqatlanish xizmatlariga ijtimoiy va iqtisodiy rag'batni ta'minlash; tashkiliy-huquqiy infratuzilmani mustahkamlash orqali umumiy ovqatlanish sub'yektlari faoliyatini yaxshilash; ijtimoiy himoya va sifatni oshirish siyosati orqali ovqatlanish xizmatlari ko'lamini kengaytirish"² kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda innovatsion boshqaruvga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatlarini ochib berish, umumiy ovqatlanish xizmatlarini diversifikatsiyalashga ko'ra innovatsion faoliyat samaradorlik darajasini oshirish yo'llarini asoslash, korxonalar innovatsion faoliyat samaradorligiga ko'ra prognozlash ishlarini amalga oshirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi PQ-5232-son "Umumiy ovqatlanish va turizm sohalarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar

¹ <https://www.fnfresearch.com/global-catering-services-market-by-type-non-contractual?utm>

² <https://lex.uz/uz/docs/-2064757>

sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 15-oktyabrdagi PQ-606 son “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktyabrdagi 289-son “Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2012-yil 7-martdagi 65-son “Chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida “alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi mavzusi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari faoliyatida innovatsiyalarning ahamiyati, innovatsion faoliyatning iqtisodiy tabiati hamda ularning samaradorligini oshirish muammolari, savdo va umumiy ovqatlanish sohasi subyektlari samaradorligi masalalari xorijlik olimlardan³ Y.Shumpeter, A. Smit, P. Samuelson, Braun, Joachim, Afsana, Kaosar, Fresco, Louise O.D.Bella, E.M.V.M.Rutgayzer, MDH davlatlari olimlaridan⁴ G.S.Sarkisyan, R. F.Agababyan, B. M. Rakitskiy, Gataullina, V. JI. Inozemseva, V. V. Kotilko, S. V. Shishkina, I. I. Dyumulena, D Lvova, T.N. Sofino,

³ Y. Shumpeter/Theorie der Wirtschaftlichen Entwicklung,1912 Social Innovation in Asia: Trends and Characteristics in China, Korea, India, Japan and Thailand, 2017, pp. 249-274 (26 pages, Braun, Joachim, Afsana, Kaosar, Fresco, Louise O. Science and Innovations for Food Systems Transformation Cham, 2023, 948p., Niranjan D, Chivate, Anuradha N Chivate, Cutting-Edge Developments in Microemulsion Technology: Diverse Applications, Formulation Innovations, and Future Horizons, June, 2024,

Завлин П.Н. Инновация в рыночной экономике / Гуманитарные науки 1997 №3. С. 3-10; Перевалов Ю.В., Голова И. М., Суховой А. Ф. Инновационная политика в регионе: организационно-правовые аспекты. Препринт Екатеринбург: ИЭ УрО РАН 2001. - 50 с.; Мартынюк Е. В. Финансирование инновационной деятельности в России // Предпринимательские и социально-экономические проблемы России: сб.науч.трудов / под общ.ред. Раппорта А.Н. -М.: ЗАО «Изд-во Экономика», 2000.-С.56-70.; Л. П. Гончаренко, Ю. А. Артуюнов. Инновационная политика –М.: КНОРУС, 2009. - 352.; Л.К. Павлов. «Инвестиции инновационного типа» Журнал «Экономист» Москва № 7 2008 стр. 34-37.; 50. Е.В. Силкина Белорусский государственный университет, Минск [Материалы международного форума «Инновационные технологии и системы»: — Минск: ГУ «БелИСА», 2006. — 156 с.; Сафарян А. А.

Инновации в сфере обслуживания [Электронный ресурс] : учебное пособие Пермь,2021

⁴ Магировский В.Д., Механизмы повышения эффективности инновационной деятельности предприятия общественного питания автореферат 2024. Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник. - М.: ИВЦ «Маркетинг». 2003. с.683. Шепетова И.В. Развитие методов исследования клиентского опыта в сфере общественного питания автореферат 2023; Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии: Сокр. пер. со словац. / Авт.предисл. В.С. Рапопорт. – М.: Экономика, . – 167с. 2010, Лапин В.Н. Социальные аспекты управления нововведениями // В сб.: Проблемы 2011, Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент: Учеб. пособие для вузов. – СПб: Питер, 2011.– 304с., Рафаэль Омонт. Молекулярная кулинария. Новые сенсационные вкусы в еде. – М.: Центрполиграф, 2019. Инновационная инфраструктура в условиях трансформации современных моделей университета: факторы внутренней и внешней среды 2019 , Володяевна, Кокшаров, Аркадий Андреевич Обеспечение качества и безопасности продукции общественного питания на примере японской кухни, 2014; Саблина Н. П. автореферат,Разработка рациональных способов переработке верблюжатины для предприятий общественного питания 2022;

P.N.Zavlin, Yu.V.Perevalov, I.M.Golova, A. F. Suxovey, Ye.V.Martnyuk, L. P. Goncharenko, Yu.A. Artuyunov, L.K. Pavlov, Ye.V. Silkina, A.A.Safaryan boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari⁵ tomonidan ham xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan, M.Pardayev, M.E.Pulatov, M.M.Muxammedov, J.R.Zaynalov, K.J.Mirzayev, B.A.Abdukarimov, D.X.Aslanova, I.S.Tuxliyev, J.I.Isroilov M.T.Alimova, S.N.Toshnazarovlarning bu borada olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan B.A.Abdukarimov o'zining tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasini industrial innovatsion rivojlanish istiqbollari, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati, innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari, korxonalarida innovatsiyalarni baholash usullari, xududlarda innovatsion faollikni oshirish shart-sharoitlari va omillari, innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirish tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlari, korxonalarining innovatsion strategiyasi shakllanishi va loyihalardagi tavakkalchilikni baholash, korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalarini o'rgangan. Pardayev M.Q. va boshqalarning fikricha xizmatlar sohasining tabiati bo'lib, klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik kon'yunkturalik, bo'g'inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog'langan kabi xususiyatlarga ega bozor o'ziga xos xususiyatlar bo'yicha farqlanadi. Lekin ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy ovqatlanish sohasi subyektlarida innovatsion faoliyat samaradorligi masalalari to'liq tadqiq etilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Mamlakatni modernizatsiyalash va innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish, servis va turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Innovatsion faoliyat va innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchalarining iqtisodiy tabiatini ochib berish hamda xizmatlar

⁵ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилини такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. - 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд,1998.с.282; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. - Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. - 0,6 б.т.; Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.; Асланова Д.Х. Трудоемкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук- Киев. 2002 - С. 20. Алиева М.Т. Совершенствование менеджмента туристической индустрии в Узбекистане.2019

sohasida, jumladan umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida innovatsion faoliyat va innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchalarining ta'rifi va tavsifini ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida, jumladan umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha model ishlab chiqish;

umumiy ovqatlanish korxonalariga innovatsiyalarni kiritish hamda samaradorligini baholash algoritmini ishlab chiqish;

Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligi tahlilini amalga oshirish;

Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat tahlili asosida umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va yo'nalishlari yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion samaradorlikni baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish;

innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy qilish orqali umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

umumiy ovqatlanish xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali innovatsion samaradorlik darajasini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;

umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida ko'p omilli korrelyasion-regression tahlilni amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatida faoliyat olib boruvchi umumiy ovqatlanish korxonalarini tanlandi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat va samaradorlikni oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sentiz, induksiya va deduksiya, tizimli hamda omilli tahlil, korrelyasion-regression tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasi va innovatsion faoliyat xususiyatlariga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchasining mohiyati xizmat ko'rsatish jarayonida mijozlarning ham ovqatlanishi, ham dam olishi nuqtai nazaridan ehtiyojini birdek qondirishi darajasi asosida takomillashtirilgan;

umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatiga kiritiladigan innovatsiyalarning sinergetik samarasini oshirishda, jumladan innovatsiyalarga ko'ra vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha oldindan yechimlarni ishlab chiqishni ko'zda tutgan holda to'rt bosqichli va besh guruh samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra innovatsion jarayonni tashkillashtirishning T4B modeli taklif etilgan;

umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalariga kiritilgan innovatsiyalar umumiy samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvi, jumladan operasion, investitsion va moliyaviy faoliyatga bir vaqtning o'zida innovatsiyalarni kiritishning maqsadga muvofiqligiga ko'ra takomillashtirilgan;

umumiy ovqatlanish tarmog'i va korxonalari faoliyat natijaviyligiga funksional bog'liq bo'lmagan omillar asosida makro darajada umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan yaratiladigan qo'shilgan qiymat hajmining 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilib, shunga ko'ra iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

umumiy ovqatlanishda innovatsion xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini mamlakatda qo'llash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan Statistika agentligidan olingani, xulosa va takliflar matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi hamda taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, ularning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalarning umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uslubiyotini hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalar samaradorligini oshirishning tashkiliy-institusional asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda innovatsiyalarni olib kirishni tizimlashtirish, innovatsiyalarni samarali boshqarish, innovatsiyalar samaradorligi darajasini baholash, "Ovqatlanish korxonalari iqtisodiyoti", "Innovatsion infrastruktura", fani bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohasi va innovatsion faoliyat xususiyatlariga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchasining mohiyati xizmat ko'rsatish jarayonida mijozlarning ham ovqatlanishi, ham dam olishi nuqtai nazaridan ehtiyojni birdek qondirishi darajasi asosida takomillashtirish taklifi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bo'yicha 2024-yil 27-noyabrdagi 4-sonli buyruq asosida 253-27/11 raqamli guvohnoma asosida chop etilgan "Innovatsion infrastruktura" fani mazmuniga singdirilgan hamda O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan "umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchasi"ni ishlab chiqishda

foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan 2025-yil 25-yanvardagi 06-10-33-901-sonli, O'zbekiston savdo-sanoat palatasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-1122-sonli ma'lumotnomalari). Taklif uslubiy jihatdan umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi tushunchasi aniqlik darajasining ortishiga ko'ra tahlil va qaror qabul qilish sifatini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatiga kiritiladigan innovatsiyalarning sinergetik samarasini oshirishda, jumladan innovatsiyalarga ko'ra vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha oldindan yechimlarni ishlab chiqishni ko'zda tutgan holda to'rt bosqichli va besh guruh samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra innovatsion jarayonni tashkillashti-rishning T4B modeli bo'yicha taklif Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bo'yicha 2024-yil 27-noyabrdagi 4-sonli buyruq asosida 253-27/11 raqamli guvohnoma asosida chop etilgan "Innovatsion infrastruktura" fani mazmuniga singdirilgan hamda "Feruza Milliy Taomlari" MCHJ va "Galla Osiyo Taomlari" MCHJ faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan 2025-yil 25-yanvardagi 06-10-33-901-sonli, O'zbekiston savdo-sanoat palatasi Samarqand viloyati hududiy boshqarma-sining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-1122 sonli, "Feruza Milliy Taomlari" MCHJ"ning 2024-yil 25-sentyabrdagi 14/10-01- sonli hamda "Galla Osiyo Taomlari" MCHJning 2024-yil 11-oktyabrdagi 04-87/25-sonli ma'lumotnomalari). Taklif xizmat ko'rsatish korxonalariga innovatsiyalarni olib kirishda korxonani tayyorlashdan boshlanib natijalarni tizimli hamda uzluksiz tahlil qilish imkoniyatini, natijalarni uzluksiz kuzatib borish imkoniyatini kengaytirish hamda mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning xarajatlarini 5% gacha qisqarishiga, innovatsion faoliyat natijalari bo'yicha axborotlarni yig'ish hamda qayta ishlash xarajatlarini 7% gacha qisqarishiga erishilgan bo'lsa, innovatsiyalar bilan bog'liq boshqaruv qarorlarining samaradorligini 4% ga o'sishiga erishilishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalariga kiritilgan innovatsiyalar umumiy samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvi, jumladan operasion, investitsion va moliyaviy faoliyatga bir vaqtning o'zida innovatsiyalarni kiritishning maqsadga muvofiqligiga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalariga kiritilgan innovatsiyalar umumiy samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqishda hamda "Start Servis Max" MCHJ va "Oqdaryo Ideal" MCHJning biznes-rejalarini asoslashda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 25-yanvardagi 06-10-33-901-sonli, Savdo-sanoat palatasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-1122-sonli, "Start Servis Max" MCHJning 2024-yil 15- avgustdagi 189-sonli, "Oqdaryo Ideal" MCHJning 2024-yil 11-sentyabrdagi 06-01/03-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklif umumiy ovqatlanish korxonalarini innovatsion samaradorlik darajasini baholash aniqligini oshirishga, innovatsiyalarni tanlashdagi xatoliklar darajasini 1,5% gacha

qisqarishiga, tanlangan innovatsiyalarning rentabelligini 2,0%gacha o'sishiga va innovatsion jozibadorligini 0,8%gacha o'sishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

umumiy ovqatlanish tarmog'i va korxonalari faoliyat natijaviyligiga funksional bog'liq bo'lmagan omillar asosida makro darajada umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan yaratiladigan qo'shilgan qiymat hajmining 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan umumiy ovqatlanish tarmog'ini rivojlantirishning 2030-yilgacha strategiyasini ishlab chiqishda hamda "Feruza Milliy Taomlari" MCHJ va "Oqdaryo Ideal" MCHJ biznes-rejalarini asoslashda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 25-yanvardagi 06-10-33-901-sonli, Savdo-sanoat palatasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-1122-sonli, "Feruza Milliy Taomlari" MCHJ 25-sentabr 2024-yil 25-sentyabrdagi 14/10-01-sonli, "Oqdaryo Ideal" MCHJning 2024-yil 25-sentabrdagi 14/10-01-sonli ma'lumotnomalari). Taklif umumiy ovqatlanish korxonalari samaradorlik darajalarini o'rtacha 1,5%gacha o'sishiga, xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 2 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning nazariy asoslari**" deb nomlanuvchi birinchi bobida xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, xizmatlar sohasining turli tarmoqlarga bo'linishi tarmoqlarning xizmatlardagi ulushi hamda xizmatlarning xalqaro va milliy tavsiflanishi ko'rsatib o'tilgan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari asosiy uchta funksiyani bajaradi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va maxsus joylarda aholi iste'molini tashkillashtirish. Bu funksiyalar qatorida umumiy ovqatlanish

korxonalarining yana bir funksiyasi aholining dam olish va ijtimoiy marosimlarni tashkillashtirish funksiyasini ta'kidlab o'tish lozim.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining o'ziga xos jihatlarni ko'rib o'tadigan bo'lsak:

- kundalik hayotning muhim qismi hisoblanadi;
- milliy iqtisodiyotga katta hissa qo'shadi;
- murakkab va ko'p tarmoqli ish o'rinlarini yaratadi;
- tadbirkorlikni rivojlantiradi;
- turli xil oziq-ovqat tushunchalari va oshxonalari orqali diversifikatsiyani targ'ib qiladi;
- innovatsiyalarni rag'batlantiradi va rivojlantiradi;
- boshqa ko'plab periferik xizmatlardan foydalanadigan mahalliy multiplikator hisoblanadi;
- sohada iste'molchi va uning manfaatlari ustunlik qiladi;
- umumiy ovqatlanish sohasida yuqori raqobat mavjud bo'lib raqobatbardosh korxonalariga g'olib chiqadi;
- do'stlar, oila va hamkasblar davrasidan zavqlanish imkoniyatini beradi;
- insonlarning asosiy ehtiyojlarni qondiradi.


Umumiy ovqatlanish korxonalari o'z faoliyatida bir qator qiyinchiliklarga duch keladi bulardan asosiylari o'rganib chiqildi. Bular:

- Nomoddiylik- Umumiy ovqatlanish mahsulotlarining katta qismini nomoddiy mahsulotlar, ya'ni xizmatlar tashkil qiladi;
- Ishlab chiqarish va iste'molning bir vaqtda ekanligi- aksariyat hollarda mahsulot bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqariladi hamda iste'mol qilinadi;
- Turfa xillik- har bir ko'rsatilgan xizmat o'zgacha; doimiy yoki izchil emasligi- Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlarining nomoddiy elementi(xizmat ko'rsatish) tufayli ko'pchilik iste'molchilar talab qilganlari kabi izchillikka erishish qiyin;
- Mahsulotlarning tez aynishi- umumiy ovqatlanish korxonalari mahsulotlari, ko'pgina xizmat ko'rsatish sohasida bo'lgani kabi, tez aynish xususiyatiga ega;
- Egalik qilish- umumiy ovqatlanish mahsulotini sotib olayotganda, iste'molchi faqat o'sha vaqtdagina mahsulotga egalik qiladi;
- Kafolat berilmasligi- aksariyat hollarda sotib olingandan ma'lum vaqt o'tgach, keyingi parvarish yoki qo'shimcha xizmatlar bo'lmaydi;
- Taqlid qilishning oson ekanligi- raqobatchilar tomonidan osongina kuzatiladi va shuning uchun nusxa ko'chirishga olib keladi, ya'ni patentlar yo'q.
- Mavsumiylik- Ko'pgina restoranlar turli mavsumlardagina ishlaydi va shuning uchun bu ko'pchilik operatorlar uchun xodimlar va xarajatlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalar tasniflanishini quyidagi chizmada tasvirlangan (1-rasm).

Bundan tashqari xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya tushunchasi uning mohiyati va nazariyasi, innovatsion faoliyatning jahonda va O'zbekistonda rivojlanish bosqichlari, mamlakatda umumiy ovqatlanish sohasida innovatsion

faoliyat holati, innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning umumiy ovqatlanish sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari, ovqatlanish korxonalarida raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari yoritilgan hamda umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyat samaradorligiga takomillashtirilgan ta'riflar ishlab chiqilgan.



1-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarning tasniflanishi⁶

Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat deganda, umumiy ovqatlanish korxonalarida ilg'or g'oyalar asosida amalga oshirilgan texnologiya va ixtirolarni joriy qilishga qaratilgan harakatlar natijasida iste'molchilar talabiga mos sifatli va arzon hamda jozibador xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy faoliyat majmui tushuniladi.⁷

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ Muallif ishlanmasi

Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligi deganda, umumiy ovqatlanish korxonalarida ilg'or g'oyalar asosida amalga oshirilgan texnologiya va ixtirolarni joriy qilish asosida korxonaning tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy samara darajasini dinamik o'zgarishi tushuniladi.⁸

Ushbu berilgan ta'riflar umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining alohida xususiyatlari, xususan, faoliyat davomida xaridorlarning ham dam olish nuqtai nazaridan, ham ovqatlanish nuqtayi nazaridan ehtiyojlarini birdek qondirishi darajasini o'zida aks ettirgan. Tadqiqotlar natijasida umumiy ovqatlanish korxonalarini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Tadqiqotlar natijasida umumiy ovqatlanish korxonalarini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Bular tarkibiga bitta mijozga ko'rsatilgan o'rtacha xizmat hajmi, bandlik ulushi hamda xodimlarni bandlik darajasi kabi ko'rsatkichlarni kiritish va ularni aniqlash yo'llari taklif etildi (1- jadval).

1-jadval.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi⁹

№	Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash usuli	Izoh
Operatsion faoliyat samaradorligi			
1.	Bitta mijozga ko'rsatilgan o'rtacha xizmat hajmi	$O'XH = \frac{XKOH}{XKS}$ Bu yerda: XKOH-xizmat ko'rsatishdan olingan haq; XKS-xizmat ko'rsatilganlar soni.	Mijozning korxonada sarflagan o'rtacha summasini ko'rsatadi.
2.	Bandlik ulushi	$BU = \frac{BOS}{UOS}$ Bu yerda: BU-bandlik ulushi; BOS-Band o'rindiqlar soni; UOS-umumiy o'rindiqlar soni.	Korxonada mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi o'rindiqlardan qanchalik yaxshi foydalanilayotganligini ko'rsatadi.
3.	Xodimlarni bandlik darajasi	$XIBT = \frac{XIV}{UIV}$ Bu yerda: XIBT-xodimlarni ish bilan ta'minlanganligi; XIV-xodimlarning ishlagan soati; UIV- xodimlarning umumiy ish soati.	Xodimlardan qanchalik samarali foydalanilganligini aks ettiradi.
Innovatsion faoliyat samaradorligi			
4.	Iqtisodiy samaradorlik darajasi	$ISD = \frac{\Delta SF * 100}{IQX}$ ISD-iqtisodiy samaradorlik darajasi; ΔSF – sof foydaning qo'shimcha o'sish darajasi; IQX – innovatsiyaga qilingan xarajatlar yig'indisi.	Har 100 so'mlik innovatsiyaga qilingan xarajat korxonada foydasini qo'shimcha necha so'mga o'zgartirganligini bildiradi.
5.	Tashkiliy samaradorlik darajasi	$TSD = \frac{\Delta TX}{\Delta UX}$ ΔTX – tashkiliy xarajatlarning qo'shimcha o'sishi; ΔUX – umumiy xarajatlarning qo'shimcha o'sish darajasi	Umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishda tashkiliy xarajatlarning qo'shimcha o'zgarish darajasini umumiy xarajatlarning qo'shimcha o'zgarish darajasidagi ulushini ifodalaydi
6.	Ijtimoiy samaradorlik darajasi	$ISD = \frac{\text{Korxonada xizmat hajmi}}{\text{Umumiy bozor hajmi}} * 100$	Korxonaning xizmat hajmini umumiy bozor hajmidagi ulushini dinamik o'zgarishini ifodalaydi.

⁸ Muallif ishlanmasi

⁹ Muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning “Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion samaradorlikni oshirishning konseptual yo‘nalishlari” deb nomlangan ikkinchi bobida xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsion faoliyat samaradorligini baholash tizimlari, innovatsion samaradorlik tahlilini amalga oshirish mexanizmlari hamda innovatsion samaradorlikni baholashning xalqaro tajribasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida innovatsiyalarni olib kirish, ularni boshqarish, olib kirilgan innovatsiyalarni yo‘nalishlari, innovatsiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Samarqand viloyatida mavjud umumiy ovqatlanish korxonalarini o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi hamda ushbu so‘rovnomada 112 ta umumiy ovqatlanish korxonasi ishtirok etdi. Ushbu umumiy ovqatlanish korxonalarining 21 tasi chekka hududlarda, 50 tasi tuman markazlarida hamda 41 tasi shahar markazlarida joylashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini hisoblanadi.

Ushbu 112 ta umumiy ovqatlanish korxonalarining jamlanma natijalari quyidagicha (2-jadval).

2-jadval.

Samarqand viloyatida joylashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma natijalari¹⁰

№	Hududlar	Umumiy korxonalar soni	Innovatsiya kiritgan korxonalar soni	Innovatsiya kiritmagan korxonalar soni
1.	Shahar markazlarida	41	39	2
2.	Tuman markazlarida	50	38	12
3.	Chekka hududlarda	21	3	18
Jami		112	80	32

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki yangi innovatsiyalar olib kirish darajasining katta qismi shahar markazlariga to‘g‘ri kelsa eng past ko‘rsatkich tuman markazlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Innovatsiya xarajatni amalga oshirgan 80 ta korxonaning innovatsiya miqdori hamda ularning samaradorligi natijalari umumlashtirildi (3-jadval).

3-jadval.

So‘rovnoma olib borilgan 80 ta korxonaning innovatsiya natijalari statistikasi¹¹

№	Kiritilgan innovatsiyaga xarajatlar	Kiritilgan innovatsiya natijasida daromadning qo‘shimcha o‘sishi				
		10 % gacha	10-25 foizgacha	25-50 foizgacha	50-100 foizgacha	100 foizdan yuqori
1.	50 mln so‘mgacha	5	-	7	-	-
2.	50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha	1	8	7	1	3
3.	100 mlnso‘mdan 300 mln so‘mgacha	-	5	2	1	-
4.	300 mln so‘mdan yuqori	-	11	24	4	1

¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki innovatsiya kiritgan 80 ta korxonaning 12 tasi 50 mln so‘mgacha innovatsiyalar kiritgan hamda 50 tasi daromadlarini 10 foizgacha oshirgan bo‘lsa 7 tasi 25 foizdan 50 foizgacha oshirishga erishgan. 50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha innovatsiya kiritgan korxonalar

20 tani tashkil qilib shundan 1 tasi daromadlarini 10 foizga, 8 tasi 10 foizdan 25 foizgacha, 7 tasi 25 foizdan 50 foizgacha, 1 tasi 50 foizdan 100 foizgacha hamda 3 tasi 100 foizdan ziyod daromadlarini oshirishga erishgan.

100 mlndan 300 mln so‘mgacha miqdorda innovatsiya kiritgan korxonalar 8 tani tashkil qilib shundan 5 tasi daromadlarini 10 foizdan 25 foizgacha, 2 tasi 25 foizdan 50 foizgacha hamda 1 tasi 50 foizdan 100 foizgacha oshirishga erishgan. 300 mlndan ko‘p innovatsiya kiritgan korxonalar soni 40tani tashkil qilib 11 tasi daromadlarini 10 foizdan 25 foizgacha oshirgan bo‘lsa, 24 tasi 25 foizdan 50 foizgacha, 4 tasi 50 foizdan 100 foizgacha hamda 1 tasi 100 foizdan ko‘proq miqdorda o‘z daromadlarini oshirgan.

Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati o‘rganilishi natijasida so‘nggi uch yilda innovatsiya kiritish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirgan “Galla osiyo taomlari” MCHJ, “Feruza milliy taomlari” MCHJ, “Oqdaryo ideal” MCHJ hamda “Start Servis Max” MCHJ korxonalar mavjudligi aniqlandi hamda ushbu korxonalarning moliyaviy hamda statistik hisobot shakllari orqali quyidagi ma’lumotlar olindi. Jadval ma’lumotlaridan foydalangan holda yuqorida to‘rtta korxonalar faoliyati tahlil qilindi va quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi (4,5-jadvallar).

4 –jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yurutuvchi umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning 2024-yil natijaviy ko‘rsatkichlari¹²

№	Ko‘rsatkichlar nomi	“Galla Osiyo Taomlari” MCHJ	“Feruza Milliy Taomlari” MCHJ	“Oqdaryo Ideal” MCHJ	“Start Servis Max” MCHJ
1.	Ko‘rsatilgan xizmat hajmi (mln. so‘mda)	544,2	648,9	742,5	324,2
2.	Xodimlarning o‘rtacha soni (kishi)	15	14	21	11
3.	Jami daromad summasi (mln. so‘mda)	544,2	748,7	874,6	324,2
4.	Jami xarajatlar summasi (mln. so‘mda)	398,7	578,6	947,3	241,2
5.	Sof foyda(mln.so‘mda)	145,5	170,1	227,3	83
6.	2021-2023 yillarda amalga oshirilgan innovatsion xarajatlar yig‘indisi(mln. so‘mda)	150	210	120	50
7.	2021-2023 yillarda erishilgan sof foyda yig‘indisi(mln. so‘mda)	312,2	498,7	512,2	174,5

¹² Muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki o'rganib chiqilgan korxonalarda umumiy mehnat unumdorligining eng yuqori ko'rsatkichi 46,35 bilan "Feruza Milliy Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkichi 31.11 bilan "Start Servis Max" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan.

Jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda yuqorida to'rtta korxonada faoliyati tahlil qilinib, ulardagi mehnat unumdorligi, xarajatlarning daromadlarga nisbatan ulushi, rentabellikning daromadga nisbatan darajasi, foydaning xarajatlarga nisbatan rentabelligi kabi ko'rsatkichlar aniqlandi.

5-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yurutuvchi umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari¹³

№	Ko'rsatkichlar nomi	"Galla Osiyo Taomlari" MCHJ	"Feruza Milliy Taomlari" MCHJ	"Oqdaryo Ideal" MCHJ	"Start Servis Max" MCHJ
1.	Umumiy mehnat unumdorligi (mln so'm)	36,28	46,35	35,36	31,11
2.	Xarajatlarning daromadlarga nisbatan ulushi %	73,3	77,3	74,0	74,4
3.	Rentabellikning daromadga nisbatan darajasi %	26,7	22,7	26,1	25,6
4.	Foydaning xarajatlarga nisbatan rentabellik (har 100 so'mga)	36,5	29,4	35,1	34,4
5.	Har bir xodimga to'g'ri keladigan foyda summasini (mln so'm)	9,7	12,15	10,8	7,5
6.	Innovatsion xarajatlar rentabelligi (har bir so'mga)	2,08	2,37	4,27	3,49

Xarajatlarning daromadlarga nisbatan ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 77,3 %, bilan "Feruza Milliy Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkichi 73,3 bilan "Galla Osiyo Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan.

Rentabellikning daromadlarga nisbatan darajasi bo'yicha 26,7 bilan "Galla Osiyo Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkichi 22,7 bilan "Feruza Milliy Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan.


Foydaning xarajatlarga nisbatan rentabellik darajasi bo'yicha 36,5 bilan "Galla Osiyo Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkichi 29,4 bilan "Feruza Milliy Taomlari" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga to'g'ri kelgan.

Tadqiqot olib borilgan korxonalarda 2021-2023-yillar davomida innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan rentabellik darajasini eng yuqori ko'rsatkichi 4,27 so'm bilan "Oqdaryo Ideal" MCHJga to'g'ri kelganligi aniqlandi.

¹³ Muallif ishlanmasi

Innovation boshqaruv tizimlari orqali umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatlari o'rganilgan. Umumiy ovqatlanish xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali innovation faoliyat samaradorlik darajasini oshirish yo'llari ishlab chiqilgan. Hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida innovation faoliyat samaradorligini baholashda ko'p omilli korrelyasion-regression tahlilni takomillashtirish yoritib berilgan.

Tadqiqot natijasida sohaga kiritilgan innovatsiyalarni sinergetik samaradorligini oshirish maqsadida umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatiga innovatsiyalarni olib kirish hamda innovation samaradorlikni baholashning tizimlashtirilgan T4B modeli ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatiga innovatsiyalarni olib kirish hamda innovatsion samaradorlikni baholashning tizimlashtirilgan T4B modeli¹⁴

Innovatsiyalarning sinergetik samaradorligi sifatida ishlab chiqilgan modelda bir vaqtni o'zida kiritilgan innovatsiyalardan iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv, tuzilmaviy va tashkiliy samaradorlikka erishish va ularni tizimli baholash, uzluksiz tahlil jarayonini amalga oshirish ko'zda tutilgan.


¹⁴ Muallif ishlanmasi

Sinergetik samara deganda, ma’lum bir faoliyatda yuqori ijobiy natijaga erishish uchun o‘zaro manfaatdor subyektlar kuch va imkoniyatlarini birlashtirgan holda tizimli ravishda aniq maqsadga yo‘naltirish evaziga qo‘lga kiritilgan samara tushuniladi.

Ushbu model umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar uchun korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil qilishni tizimli amalga oshirish, kiritilayotgan innovatsiyalar vujudga keltirishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘rish hamda yechimlarini ishlab chiqish umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimi hamda kiritilgan innovatsiyalarning bir vaqtini o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv, tashkiliy hamda tuzulmaviy samaradorlik darajalarini baholash imkonini yaratadi.

Dissertatsiyaning “**Umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari**” deb nomlanuvchi uchinchi bobida iqtisodiy samaradorlikda yangi kiritilgan innovatsiya hamda innovatsion boshqaruv tizimining samarasida qancha xarajat qisqarganligi, innovatsion faoliyat rentabelligi, natijaviyligi hamda daromadlilik darajalari baholanadi hamda shu ko‘rsatkichlar orqali ularga baho beriladi.

Diversifikatsiya va innovatsiya kuchlarni birlashtirib, bir qator mahsulotlarni taklif qilish va ularni doimiy ravishda takomillashtirish orqali dinamik biznes modelini yaratish mumkin. Mijozlar xilma-xillikni yaxshi ko‘radilar va ular o‘z ehtiyojlari bilan rivojlanayotgan kompaniyalarni qadrlashadi (3-rasm).



3-rasm. Innovatsiyalarni Dynamic Duo usulida diversifikatsiya qilish imkoniyatlari.¹⁵

Innovatsiyalarni Dynamic Duo usulida diversifikatsiya qilish qator imkoniyatlarni yaratadi.

Innovatsiyalarni diversifikatsiyalash mamlakatda bevosita kreativ iqtisodning rivojlanishiga zamin yaratadi. Mamlakatimiz kreativ iqtisodiyotni rivojlanishiga hamda innovatsiyalarni diversifikatsiya qilinishiga asos bo‘luvchi 3-oktabr 2024-yilda “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-sentabrda qabul qilindi hamda Senat tomonidan 2024-yil 30-sentabrda ma’qullandi.

Bundan kelib chiqadiki xizmat ko‘rsatish korxonalari bir vaqtini o‘zida o‘zida operatsion, investitsion hamda moliyaviy faoliyatlarga innovatsiyalarni olib kirish orqali diversifikatsiya qilishi mumkin.

¹⁵ <https://medium.com/@Priyanshu1011/diversification-and-innovation-af56716fbf81>

